

UDC: 347.7(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-2930-1774

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLIYASINING HUQUQIY ASOSLARINI YARATISH MASALALARI

Turaboyev Ixtiyorjon Qobilovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Ma'muriy va moliya huquqi” kafedrası katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori,
e-mail: ituraboev@mail.ru

Annotatsiya. Hozirgi paytda an'anaviy moliyaviy institutlarga muqobil ravishda islom prinsiplariga asoslangan moliyaviy institutlar va ular tomonidan taklif qilanayotgan xizmatlarning roli oshib bormoqda. Maqolada islomiy moliya institutlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning an'anaviy moliya institutlaridan farqlari tahlil qilingan. Shuningdek islom moliya institutlarining Markaziy Osiyo davlatlarida rivojlanish holatlariga ham to'xtalib o'tilgan. Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasida islom moliyasini joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar tahlil qilingan va islom moliyasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha muammolar ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda mamlakat rahbariyati tomonidan islomiy moliya asoslarini kiritish bo'yicha fikr bildirilganligi mamlakatda mazkur sohada amalga oshirilishi zarur harakatlarni belgilab olish muhimligini ko'rsatadi. Mamlakat rahbari tomonidan islom prinsiplariga asoslangan moliya xizmatlarini ko'rsatishning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha siyosiy irodasi mavjud bo'lsa-da, mazkur sohada ishlar sust amalga oshirilayotganligi ta'kidlab o'tilgan. Maqolada muallif tomonidan mamlakatimizda islomiy moliya xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlarni yaratish va ularning sonini ko'paytirish hamda aholini mazkur xizmatlardan foydalanishiga shart-sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilishi zarur bo'lgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom banki, ribo, g'orar, qonunchilik.

ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Турабоев Ихтиержон Кобилевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
старший преподаватель кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Растет роль исламских финансовых институтов и услуг, которые они предлагают в качестве альтернативы традиционным финансовым институтам. В статье анализируются особенности исламских финансовых институтов и их отличия от традиционных. Также обсуждается развитие исламских финансовых институтов в Центральной Азии. Автор анализирует усилия по внедрению исламского финансирования в Республике Узбекистан и выявляет проблемы в предоставлении исламских финансовых услуг. В связи с тем, что сегодня руководство Республики Узбекистан выразило свое мнение о внедрении принципов исламского финансирования, важно определить необходимые шаги, которые необходимо предпринять в этой сфере. Глава государства отметил, что, несмотря на политическую волю к созданию правовой базы для предоставления финансовых услуг на основе исламских принципов, работа в этой сфере идет медленно. Автором статьи разработаны предложения, которые необходимо реализовать для создания и увеличения количества субъектов, предоставляющих в стране исламские финансовые услуги, а также для создания условий для использования населением этих услуг.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банки, риба, гарар, законодательство.

ISSUES OF CREATING LEGAL BASES OF ISLAMIC FINANCE IN UZBEKISTAN

Turaboev Ikhtiyorjon Kobilovich,

Senior lecturer of the Department of Administrative and financial law
of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *At present, the role of financial institutions and their services that are based on the principles of Islam is increasing as an alternative to traditional financial institutions. In this article, specific features of Islamic finance and its difference from traditional finance were analyzed. The state of development of Islamic finance in Central Asian countries was also enlightened. The author analyzed activities on introducing Islamic finance in Uzbekistan and highlighted the main problems connected with introducing Islamic finance in the Republic of Uzbekistan. Certain ideas of the administration of the country on Islamic finance requires determining the main directions of activities in this field. The author stated that despite the political will of the head of the country on creating legal bases for the activities on Islamic financial institutions, steps in this sphere are being put very slowly. In this article, the author elaborated recommendations on creating legal bases for Islamic finance and further development on Islamic finance services in the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *Islamic finance, Islamic banking, riba, garar, legislation.*

Bugungi kunga kelib jahonning ko'pgina davlatlarida, jumladan, mamlakat aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qilmaydigan davlatlarda ham islom tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi moliya institutlari tomonidan turli islomiy moliya xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda. Bunday moliyaviy xizmatlar sirasiga islomiy bank ishi, takoful (sug'urta), islomiy qimmatli qog'ozlar (suquq) operatsiyalari kiradi. Y. Baydauletning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda 105 ta mamlakatda islomiy moliya ishlab turibdi va aksariyat mamlakatlar qonunchiligida mazkur soha uchun normativ-huquqiy baza yaratilgan [1].

Mazkur maqolada islomiy prinsiplarga asoslangan moliya xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ushbu faoliyatning O'zbekiston Respublikasidagi istiqbollari va hal etilishi zarur bo'lgan muammolar haqida fikr yuritamiz

Islomiy moliya institutlarining boshqa an'anaviy moliya institutlaridan qanday farqlari mavjud? Mazkur farqlarni islomiy banklar va an'anaviy tijorat banklari o'rtasidagi farqlar misolida ko'rib chiqamiz. Islomiy banklar o'z faoliyatlarini islom dini normalariga qat'iy asoslangan holda amalga oshiradilar. Islomiy banklar faoliyatlarining asosiy tamoyillari shariat tomonidan man etilgan foizlarning mavjud emasligi, ya'ni riboning mavjud emasligi hamda banklarning alkohol mahsulotlari ishlab chiqish va sotish, qimor yoki boshqa tavakkalchilikka oid o'yinlarni tashkil etish, ya'ni islom dini

normalariga zid keluvchi faoliyat turlari bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etmaslikka asoslangan.

Islom prinsiplari asosida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda belgilangan shariat ahkomlarining eng asosiylaridan biri bu riboning qat'iy man qilinganligidir.

An'anaviy banklar tomonidan olinadigan foydaning asosini taqdim etilgan kreditlardan olingan foizlar tashkil etsa, islom banklari tomonidan foyda bu foizlar evaziga emas, balki banklar tomonidan investitsiya faoliyatini olib borish natijasida olingan foyda hisoblanadi. Islomiy moliya tizimi sherikchilik hamda foyda va zarar ni taqsimlash prinsiplariga asoslangan. Agar an'anaviy bank tizimida tijorat banki va mijoz o'rtasidagi munosabatlar kreditor-qarzdor munosabatlariga asoslangan bo'lsa, islomiy bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar sherikchilik munosabatlari sifatida gavdalanadi. Mazkur munosabatlarda foyda va zarar islomiy bank va mijoz o'rtasida teng taqsimlangani sababli mijoz amalga oshirayotgan loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida ham bank bevosita manfaatdor hisoblanadi.

Islomiy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – voqelikdagi (real) aktivlar asosida moliyalashtirishdir [1].

Islomiy moliyaning yana bir muhim xususiyatlaridan biri g'orarning mavjud bo'lmashligi. "G'orar" lug'atda "aldash" ma'nosini bildiradi. Shariat o'z hukmlarida oldi-berdi muomalalarini

to'raligicha aniq va ravshan bo'lishini buyurgan. Keyinchalik janjalga sabab bo'ladigan biror mubhamlikka ruxsat bermaydi. Oldi-berdilardagi bunday mubhamlikni shariatda "g'orar", ya'ni aldash, o'zganing haqqiga xiyonat qilish deyiladi" [2].

Markaziy Osiyo davlatlarida islomiy moliya xizmatlarini joriy qilish bo'yicha birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Qozog'iston Respublikasida islom tamoyillariga asoslangan moliyalashtirishni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratilgan. Shuningdek, Qirg'iziston Respublikasida ham mazkur sohada ishlar olib borilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida O'zbekiston Respublikasida islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha xatti-harakatlar ancha kech boshlandi. Bunga turli sabablarni keltirish mumkin. Balki davlat bank tizimi tomonidan islomiy bank tizimi raqobat sifatida ko'ringan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, 2016-yilgacha bo'lgan davlat siyosatida islom an'alaridan chekinish hamda sof iqtisodiy ma'nodagi islom moliyasini joriy etish mamlakatni diniy ta'sir ostida tushib qolishi kabi hadiklar bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Ammo eng asosiy sabab mamlakat rahbariyatida islomiy moliya tizimini yaratish bo'yicha siyosiy irodaning mavjud emasligida hisoblanadi.

2016-yilda Sh. Mirziyoyev mamlakat prezidenti etib saylangandan so'ng mamlakat hayotining barcha sohalarida, jumladan, iqtisodiyot sohasida katta islohotlar amalga oshirila boshlandi.

2020-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi deb ta'kidlab o'tdi [3]. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasida islomiy moliya xizmatlarini mamlakat hayotiga kiritish bo'yicha mamlakat rahbariyatining siyosiy irodasi bildirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni

qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida 2021-yil 1-martga qadar "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalash to'g'risida" qonun loyihasini tayyorlash va unda bank kredit tashkilotlari tomonidan islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish nazarda tutilgan [4]. Yuqorida ta'kidlangan qonun loyihasining 2020-yilda muhokamaga qo'yilgan tahririda nobank kredit tashkilotlari va mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliya xizmat ko'rsatish to'g'risida qoidalar mavjud emas edi. Hozirda qonun loyihasining qayta ishlangan tahriri e'lon qilinmaganligi sababli bu haqda fikr yurita olmaymiz. Ammo islomiy moliya xizmatlari nobank kredit tashkilotlari hamda mikromoliya tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi va bu xizmatlar mamlakat bank tizimidan tashqarida amalga oshirilish ehtimoli ko'proq.

Islomiy-moliyaviy moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog'ozlar – suquq joriy etish va ularni chiqarishni tartibga solish bo'yicha ham xatti-harakatlar boshlangan. 2020-yil oktabrda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali – www.regulation.gov.uz saytida O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan tayyorlangan "Islom moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog'ozlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi e'lon qilingan.

Ammo mazkur normativ-huquqiy hujjat ham qabul qilinganicha yo'q. Suquq emissiyasini to'raligicha tartibga solishga qaratilgan qonuniy bazani yaratish mazkur faoliyatni amalga oshirishda dolzarb masalaligicha qolmoqda [5].

Mamlakatimizdagi islomiy moliya xizmatlarini joriy qilishda turgan muammolardan yana biri kadrlar masalasi hisoblanadi. Hozirda islomiy moliya asoslari bo'yicha alohida o'quv predmeti joriy etilgan oliy ta'lim muassasasini aytib o'tish qiyin bo'lsa kerak. Holbuki, islomiy moliya bo'yicha alohida magistrlik dasturlari nafaqat islom davlatlari universitetlari, balki AQSh va Yevropaning bir qancha universitetlarida mavjud. Bunday universitetlar sirasiga Nyu York universiteti, Dandi universiteti, Durxam universitetlari tomonidan taqdim etilayotgan dasturlarni e'tirof etib o'tish mumkin.

Fikrimizcha, mamlakatimizda islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarni shakllantirish, ular sonini ko'paytirish hamda aholini mazkur xizmatlardan foydalanishiga shart-sharoit yaratib berish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatish, islomiy bank ishi yuritish, islomiy prinsiplarga asoslangan qimmatli qog'ozlarni chiqarishni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish turli davlat organlari tomonidan amalga oshirilmogda va ular o'rtasidagi muvofiqlashtirish ko'zga tashlanmayapti.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasida islomiy moliya xizmatlarini joriy etish Konsepsiyasini qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu konsepsiyada O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishning joriy etish istiqbollari hamda aniq yo'nalishlarini belgilab olish, shuningdek, mazkur sohani tartibga soluvchi davlat organlari vazifalarini aniq belgilab olish, islomiy moliya xizmatlar ko'rsatishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari va bunga mas'ul davlat organlarini belgilab olish zarur.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida islomiy moliya xizmatlarini joriy etish Konsepsiyasi asosida mazkur sohani tartibga soluvchi yagona qonun hujjatini yoki sohalar bo'yicha, ya'ni bank ishi, islomiy sug'urta ishi (takoful), islomiy qimmatli qog'ozlar (suquq) emissiyasi va joylashtirishni tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

Uchinchidan, islomiy moliyalashtirishni tartibga solishga qaratilgan yagona qonun hujja-

ti yoki qonun hujjatlari asosida fuqarolik, soliq qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlarni kiritish hamda mamlakatda islomiy moliya rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi amaldagi qoidalarni bekor qilish zarur hisoblanadi.

To'rtinchidan, islomiy moliya sohasida mutaxassislarni tayyorlash eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda Xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi islom instituti, viloyatlarda tashkil etilgan islom o'rta-maxsus bilim yurtlarida, shuningdek, iqtisodiy va yuridik oliy yuridik ta'lim muassasalarida "islomiy moliya asoslari", "islomiy iqtisodiyot asoslari" bo'yicha dasturlarni joriy qilish hamda bu sohada mutaxassislarni tayyorlashga jiddiy e'tibor berish zarur. Ta'lim dasturlari kiritilishi bilan bir paytda mazkur sohada darslik va qo'llanmalarini tayyorlashga jiddiy e'tibor berish muhim hisoblanadi.

Beshinchidan, islom moliyasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish zarur hisoblanadi. Buning uchun oliy iqtisodiy va yuridik ta'lim muassasalarida, sohaviy ilmiy tekshirish institutlarida mazkur soha muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishni tashkillashtirish va rag'batlantirish zarur.

Mamlakatimizda islomiy moliyani joriy etish va uni rivojlantirishni kompleks va bosqichmbosqich asoslarda yondashish muhim hisoblanadi.

Mazkur yondashuv o'z ichiga yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, islomiy moliyani joriy yetish bo'yicha qonunchilik bazasini yaratish, ushbu sohada ta'lim va tadqiqot ishlarini olib borish hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng ommaga targ'ib qilishni olishi kerak.

REFERENCES

1. Baydaulet E.A. Islomiy moliya asoslari [Fundamentals of Islamic Finance]. Tashkent, 2019, p. 9.
2. Imagination of trade and production. Available at: <https://fiqh.uz/maqola/824/>.
3. Microcapital brief: Uzbekistan's Hamkor Bank to Launch Islamic Microfinance. Available at: <http://www.microcapital.org/microcapital-brief-uzbekistans-hamkor-bank-to-launch-islamic-microfinance/>.
4. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4057/>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid

Davlat dasturi”, 60-band [Approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 3, 2021 No PF-6155 “Strategy of actions on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021” State Program for the Year of Strengthening”, paragraph 60].

6. Batirova K. Pravoviye osobennosti islamskix sennix bumag (sukuk) [Legal Features of Islamic Sennih Papers (Sukuk)]. Review of law sciences, 2021, no. 2, p. 114.

7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi [Translation of the Meaning of the Holy Quran]. Tashkent, 2019, p. 47.

8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya [That’s enough]. Tashkent, 2008, p. 120.

9. Bekkin R. Islamskiye banki v Kazaxstane [Islamic banks in Kazakhstan]. Bank. praktika za rubejom – Banking practice abroad, Kiev, 2008, pp. 24–27.

10. Bekkin R. Islamskiye finansi v Azerbaydjane [Islamic finance in Azerbaijan]. Bank. praktika za rubejom. Kiyev – Banking practice abroad, Kiev, 2008, pp. 40–47.

11. Bekkin R.I. Islamskiye finansoviye instituti i instrumenti v musulmanskix i nemusulmanskix stranax: osobennosti i perspektivi razvitiya. Avtoref. dis. d-ra ekon. nauk. Spes. 08.00.14 [Islamic financial institutions and instruments in Muslim and non-Muslim countries: features and development prospects. Abstract dis. Specialty 08.00.14]. In-t Afriki Ros. akad. nauk – Institute of Africa of the Russian Academy of Sciences, Moscow, 2009, p. 50.

12. Xamed S., Muneym A. Pravovoy status i grajdansko-pravovoye regulirovaniye deyatelnosti islamskix bankov v stranax Blijnego i Srednego Vostoka. Avtoref. dis. Spes. 12.00.03 [Legal status and civil law regulation of the activities of Islamic banks in the countries of the Near and Middle East. Abstract dis.]. Ros. un-t drujbi narodov – Russian University of Friendship of Peoples, Moscow, 2000, p. 19.

13. PrudnikovaY. Islamskiye banki i problema pravovogo regulirovaniya ix deyatelnosti v nemusulmanskix stranax (na primere Velikobritanii) [Islamic banks and the problem of legal regulation of their activities in non-Muslim countries (on the example of Great Britain)]. Problemi sovrem. ekonomiki – Problems of modern economy, Saint Petersburg, 2005, no. 3 (4), pp. 409–413.

14. Pahomov S.B. Rinok islamskih obligasiy: problemi i perspektivi [Islamic Bond Market: Problems and Prospects]. Finansy – Finance, 2007, no. 4, pp. 62–65.

15. Miroshnik E.N. Islamskiye banki [Islamic banks]. Bank. delo – Banking, 1999, no. 8, pp. 20–21.

16. Kettell B. Introduction to Islamic Banking and Finance, 2011.

17. Iqbal M., Lewellyn D. Islamic Banking and Finance: New Perspectives on Profit-Sharing and Risk, Edward Elgar Publishing, Inc., 2002.

18. Zamir Iqbal Abbas Mirakhor. Ethical Dimensionsof Islamic Finance. Theory and Practice, Palgrave Macmillan, 2017.

19. The Islamic Finance Handbook. A practitioner’s guide to the glabal markets, 2014.

20. Aldohni A.K. The Legal and Regulatory Aspects of Islamic Banking. A Comparative Look at the United Kingdom and Malaysia.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

I QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.